

## **O'ZBEK TILIDA MAKON DEYKSISINING IFODALANISHI**

**Yoqubjonova Mexrinoz Yaxyojon qizi**

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti

III-bosqich 303-guruh talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada makon deyksisining o'ziga xos xususiyatlari va uning o'zbek tilida ifodalanishi pragmatik aspektida o'rganilgan. Makon deyksisini ifodalovchi faol birliklardan biri olmoshlar hisoblanadi va olmoshlardan namunalar berilib, ma'noviy turlariga ham to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** makon deyksisi, birlamchi va ikkilamchi deyksis, olmosh va uning ma'noviy guruhlari.*

### **ABSTRACT**

*This article explores the features of spatial dexterity and its pragmatic expression in the Uzbek language. One of the active units representing spatial dexterity is rhyme, while examples of rhyme are given, and spiritual types are also mentioned.*

***Keywords:** spatial dexterity, primary and secondary dexterity, diamond and its spiritual groups.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье исследуются особенности пространственной ловкости и ее прагматичное выражение на узбекском языке. Одной из активных единиц, репрезентирующих пространственную ловкость, является рифма, при этом приводятся примеры рифмовки, а также упоминаются духовные типы.*

***Ключевые слова:** пространственная ловкость, первичная и вторичная ловкость, алмаз и его духовные группы.*

### **KIRISH**

Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari egallagan o'ringa ishora makon deyksisi mazmunini tashkil qiladi. Voqelikning idrok qilinishi va bu idrokning lisoniy ifoda topishi ikki asosiy lisoniy – tafakkur harakatini talab qiladi : birinchidan, voqelik parchasini tavsiflash lozim bo'lsa, ikkinchidan, uni ma'lum makonda joylashtirish talab qilinadi. Ammo makonda joy olishning o'zi ham ikki ko'rinishda bo'ladi. Obyektlar bir-biriga nisbatan joylashadilar:

a)Registon Samarqandning markazida joylashgan;

b)Rasadxona janubiy kenglikning 50 gradusida joylashgan.

Bu misollarda makon deytik mazmunga ega emasdek tuyuladi, chunki bunday makon tasavvuri va ifodasida muloqot ishtirokchilarining o'zni yo'q. Makon muloqot ishtirokchilarining muloqot kechayotgan paytdagi o'ziga nisbatan belgilanishi deytik xarakterga ega.<sup>1</sup>

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Makon deyxisini hosil qiluvchi birliklar makon semantik maydonga birlashuvchi birliklardan makonni qay tarzda aks ettirishiga ko'ra farqlanadi. Makon deyxisini hosil qiluvchi birliklar bevosita makonni ifodalamaydi, balki obyekt yoki subyektning borliqda egallagan o'ziga ishora qiladi yoki ko'rsatadi. Makon deyxisining ifodalanishi nutqiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. Muayyan obyekt yoki subyektning joylashish o'ziga ishora nutq ishtirokchilariga, ya'ni so'zlovchi va tinglovchiga nisbatan belgilanadi. Deyxisning semantik asosida "men", "so'zlovchi" tushunchalari yotadi. Bunda so'zlovchi nutqiy muloqot aktining yuz berayotgan vaqti va o'zini belgilovchi markaz, mo'ljal sanaladi. Biroq bu o'rinda tinglovchining o'zini ham inobatga olinishi maqsadga muvofiq. Negaki, nutqiy muloqotda so'zlovchi va tinglovchi bir-birini ko'radi, atrofdagi vaziyat, borliqni idrok etish har biri uchun ochiq. Rus olimi Yu. Apresyan mazkur holatdagi deyxisni (dialog, jonli muloqot vaziyatidagi) birlamchi deyxis sifatida, nutqiy muloqotda yuzma-yuz turmagan so'zlovchi va tinglovchining muayyan o'rin-joyga ishorasi hamda nutqiy akt jarayonini bayon, hikoya qilib berishda yuzaga chiqqan deyxisni ikkilamchi deyxis sifatida tasniflaydi.<sup>2</sup>

Makon deyxisida so'zlovchi bilan bir qatorda kuzatuvchining, ya'ni nutqiy muloqotda ishtirok etmayotgan, biroq vaziyatni kuzatayotgan va uni bayon etayotgan shaxsning ham muhim o'zini bor. Bu o'rinda, albatta, matn nazarda tutiladi. S.Boymirzayeva ham "Matnning makon maydoni tizimiy xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum turdagi nutqiy faoliyatda voqelik hodisalarining muallif kuzatuv natijasida voqealanadigan tizimdir" deb baholaydi.<sup>3</sup>

O'zbek tilida makonga ishora qiluvchi deytik birliklar ham o'zaro farqlanadi. Ularni mohiyatan o'ziga ishora belgisiga ega bo'lgan birliklar hamda muayyan nutqiy vaziyatda deytik xususiyat kasb etuvchi birliklarga ajratish mumkin. Birinchi turga bevosita o'ziga ishora qiluvchi ayrim ko'rsatish (u, bu, shu, o'sha, ana, mana, ana u, mana bu kabilar), so'roq olmoshlari (qayer,

<sup>1</sup> Sh.Safarov. Pragmalingvistika. – Toshkent. 2008.

<sup>2</sup> Ю.Д.Апресян. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира. [Электрон ресурс].

<sup>3</sup> S.Boymirzayeva. O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. – Toshkent. 2010. 21-bet.

qayerga, qayerda, qani kabilar), belgilash olmoshlari (har qayer kabilar), o'rin ravishlari (unda-bunda, oldinda, uzoqda, orqada kabilar), o'rin ifodalovchi atoqli otlar, o'rin kelishliklari (chiqish, o'rin-payt), chegara shakli (-gacha) qo'shimchalari, u yer, bu yer, o'sha joy kabi so'z birikmalari kiradi. Ikkinchi turga ayrim otlashgan kishilik va o'zlik olmoshlari, o'rin valentligiga ega fe'llar (bormoq, kelmoq, ketmoq, chaqirmoq kabilar), o'rin-joyga munosabat bildiruvchi sifatlar (quyidagi, yuqoridagi) va boshqalarni kiritish mumkin.

O'zbek tilidagi olmoshlar faol deytik birliklar hisoblanadi. Olmoshlarning makonga ishora qilish xususiyati nutqiy muloqotda matn qurshovi orqali yuzaga chiqadi. Bunda olmosh ishora qilayotgan obyektning tinglovchi tomonidan to'g'ri qabul qilinishida nutq vaziyati, matn va til egalarining umumiy bilish fondi muhim ahamiyatga ega. Matndan yoki nutqiy vaziyatdan tashqarida olmoshlar so'zlovchi maqsadini to'liq yetkazib bera olmasligi mumkin. Masalan:

Tinchlik deya yurak bag'ri kuyuk eldir bu,  
Yaratganning qoshida eng suyuq eldir bu,  
O'tmishi ham, ertasi ham buyuk eldir bu,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagin sen! (Iqbol Mirzo)

Ushbu parchada 1-2-3-misralar oxirida takrorlanib kelayotgan bu olmoshida ishora obyektini ma'nosi mavjud. Olmoshning ishora obyektini aniqlashtirish uchun nutq vaziyati yoki kontekstga ehtiyoj tug'iladi. "Umar uyni ko'rib chiqishgach, dallolga yuzlandi. Bu menga yoqmadi, boshqasini ko'raylik". Ushbu nutqiy vaziyatda, bu olmoshi matnning oldingi qismidagi uyga ishora qilib, makon deyxsisini shakllantirishga xizmat qilgan.

Nutqda makonga ishora qiluvchi deytik birliklar muayyan makonga ishora qilish bilan birga makonning so'zlovchiga nisbatan joylashgan masofasi (uzoq-yaqin)ga ham ishora qiladi. Masalan, Yusupov oblast ijroiya komiteti binosi oldida mashinadan tushdi. Kanal shtabi shu binoga o'rnashgan (Said Ahmad) gapida shu olmoshi ijroiya komitet binosiga ishora qilish bilan birga binoning matn subyektini (Yusupovga) yaqin masofadiligini ham ko'rsatadi.

Ana, ana u olmoshlari esa makonga ishora qilish bilan birga makonning so'zlovchidan ma'lum bir uzoqlikda joylashganligiga ishora qiladi. Masalan: Kelgan yo'lingni ham bilmaysan-a. Manavi Kuyganyorga, anavi qirg'oqdan ketgan yo'l qamish oralab Oltinko'lga, Chinobodga olib boradi (Said Ahmad) gapida qo'llangan manavi olmoshi so'zlovchiga yaqin masofadagi, anavi olmoshi nisbatan uzoqdagi makonga ishora qiladi. Mazkur holatda olmoshlar

makon deyxisi sifatida uzoq-yaqinlik belgisi ostida zidlanadi: mana – soʻzlovchiga yaqin masofadagi makon, ana – soʻzlovchidan uzoqdagi makon.

Oʻsha olmoshi nutqda soʻzlovchi va tinglovchilarning umumiy bilimlari va ular uchun oldindan maʼlum boʻlgan makonga ishorani shakllantiradi. Masalan: Oʻshamikin? Adashmadikmi? – binoning ahvolini koʻrib doʻstining “saroyga oʻxshaydi” degan gapi yodiga tushib miyigʻida kulib qoʻydi. Ushbu nutqiy parchada oʻsha olmoshi binoga ishora qilish bilan birga nutq ishtirokchilarining bu oʻrin-joy toʻgʻrisida oldindan maʼlumotga ega ekanliklarini anglatadi.

Nutqda koʻrsatish olmoshlaridan tashqari qani, qayerga // -da, -dan soʻroq olmoshlari va qayer soʻroq olmoshi bilan hosil qilingan boʻlishsizlik hech qayerga// -da, -dan, gumon allaqayerga// -da, -dan, -qayergadir, belgilash har qayerga// -da, -dan olmoshlari ham oʻrin-joyga ishora qilib, makon deyxisini shakllantiradi. Quyidagi misollarga eʼtibor beraylik:

1. Soʻroq olmoshlari orqali: Qayerdانسiz? -deb soʻradim undan (Said Ahmad).

2. Boʻlishsizlik olmoshlari orqali: Sizlarga uy topib bersam, qiroatxona ochmaysizlarmi? – Ochamiz. Lekin kitoblarni qayerdan olamiz. Hozirgacha hech qayerdan kitob toʻplaganimiz yoʻq (H. Qodiriy).

3. Gumon olmoshlari orqali: Dadam bosmaxonadanmi, magazindanmi, juda koʻp har xil afishalar, “Mushtum” keltirib berdilar... Soʻng dadam oʻz kutubxonalaridan va yana allaqayerlardan ancha kitob keltirib berdilar (H. Qodiriy).

4. Belgilash olmoshlari orqali: Butun xalq yopirilib, kattakon Fargʻona kanalini qazdik. Har qayerdan odamlar kela boshladi (H. Olimjon).

Charlz Fillmor Indiana universiteti lingvistik klubida 1971-yilda oʻqigan deyxisi haqidagi maʼruzasida deyxitik iboralar nutqda qoʻllanishini uch turga boʻlishni taklif qilgan:

1) “uzoqdagi” va “yaqindagi” obyektни bevosita koʻrsatish vazifasini bajaruvchi lisoniy belgi – jestlar (general use);

2) maʼlum axborot, bilim tashuvchisi (bu bilim ushbu muloqot vaziyatidan yoki mustaqil ravishda egallangan boʻlishi mumkin) boʻlgan ramziy belgi (symbolic use);

3) anaforik bogʻlovchi sifatida.<sup>4</sup>

Deyxtik birlikning birinchi turda qoʻllanishini “Ushbu kitobni oʻsha yerga (yaʼni olgan joyingizga qoʻyishingizni) istayman” misolida koʻrib chiqamiz. Bu

<sup>4</sup>Sh. Safarov. Pragmalingvistika. – Toshkent. 2008.

gap mazmunidan soʻzlovchi bevosita makonga ishora etayotganligi anglashiladi. Oʻsha yer koʻrsatish olmoshi orqali makonga ishora qilingan.

### **XULOSA**

Shuni taʼkidlash joizki, makon deyxsisini keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Nutqda makonga ishora qiluvchi deyktik birliklar muayyan makonga ishora qilish bilan birga makonning soʻzlovchiga nisbatan joylashgan masofasi (uzoq-yaqin)ga ham ishora qiladi. Olmoshlar makon deyxsisini hosil qiluvchi faol birliklar boʻlib, olmoshning qanday maʼnoda qoʻllanishi va nutqiy vaziyatda ifodalayotgan maʼnosi kontekstda aniqroq namoyon boʻladi.

### **REFERENCES**

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent. 2008.
2. Апресян Ю.Д. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира. [Электрон ресурс].
3. Boymirzayeva S. Oʻzbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. – Toshkent. 2010. 21-bet.